



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**DIDAKTIK TA'LIM BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN
FOYTDALANISH**

Qodirova Muhayyoxon Soliyevna

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Qo'qon davlat universiteti

[*godirova@gmail.com*](mailto:godirova@gmail.com)

telefon raqam: 916882002

A'zamova ZahroBahodirjon qizi

Qo'qon davlat universiteti talaba

Annotatsiya: *Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish asosida ma'lum faoliyat ko'nikma va malakalarni shakllantirish, faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan nazariy va amaliy bilimlar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahoratni, ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Maqolada shu masalalar qisqacha yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *innovatsiya, metod, interfaol, muammoni tahlil, o'zgarishlar, yangi g'oyalarn, pedagogik jarayon, noan'anaviy dars.*

Аннотация: *Одним из важных требований к организации современного образования является достижение высоких результатов в короткие сроки, не затрачивая слишком больших умственных и физических усилий. Основанный на доставке студентам конкретных теоретических знаний в сжатые сроки, формирование определенных деятельностных умений и компетенций, контроль их деятельности, оценка уровня полученных ими теоретических и практических знаний требует от преподавателя проявления высоких педагогических знаний, навыков и нового подхода к образовательному процессу. В статье кратко освещены эти вопросы.*

Ключевые слова: *инновация, метод, интерактив, проблемный анализ, изменения, новые идеи, педагогический процесс, нетрадиционный урок.*

Abstract: *One of the important requirements for the organization of modern education is to achieve high results in a short time without spending too much mental and physical effort. Based on the delivery of specific theoretical knowledge to students in a short period of time, the formation of certain activity skills and competencies, control of their activities, assessment of the level of theoretical and practical knowledge acquired by them requires the teacher to demonstrate high pedagogical skills and a new approach to the educational process. requires. The article briefly covers these issues.*



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Key words: *innovation, method, interactive, problem analysis, changes, new ideas, pedagogical process, non-traditional lesson.*

Zamonaviy sharoitda ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul yo'li - bu mashg'ulotlarning interfaol metodlar yordamida tashkil etish deb hisoblanmoqda. Xo'sh, interfaol metodlarning o'zi nima? Ular qanday didaktik imkoniyatlarga ega? Ta'lim jarayonida interfaol metodlarning o'rinli, maqsadga muvofiq qo'llanilishi qanday samaralarni kafolatlaydi? Quyidagi ana shu kabi savollarga qisqacha javob topiladi.

Yuqoridagi savollarga javob topishda eng to'g'ri qadam tayanch tushuncha -"interfaol" atamasining lug'aviy ma'nosi bilan tanishishdir.

“Interfaol” tushunchasi ingliz tilida “interakt”(rus tilida “interaktiv”) shaklida ifodalanib, lug'aviy ma'nosi “inter” – o'zaro, ikki taraflama; “akt” – harakat qilmoq, ish ko'rmoq ma'nolarini anglatadi

Interfaol ta'lim – ta'lim jarayoni ishtirokchilarining bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim

Interfaollik ta'lim jarayonlari ishtirokchilari bilim, ko'nikma, malaka hamda muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lida birgalikda, o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklarini anglatadi

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub'yektlarning suhbat (dialog), o'zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

Ta'lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an'anaviy ta'lim ham suhbat (dialog)ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o'zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi:

O'qituvchi – o'quvchi (talaba)	An'anaviy bilimdagi suhbat ishtirokchilari	O'qituvchi – o'quvchi (talaba) (jamo)
---	---	--

An'anaviy ta'limda ham tabiiy ravishda suhbat asosini axborot tashkil etadi. Ammo axborot uzatishning asosiy manbai o'qituvchining tajribasi bo'lib, bu jarayonda u yetakchilik, dominantlik qiladi, ya'ni u darsning asosiy vaqtida bilimlarni og'zaki tarzida talaba (talaba)larga yetkazib



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



berishga intiladi. Faollik ko'rsatish o'qituvchigagina xos bo'lib, talaba (talaba)lar bu vaziyatda sust tinglovchi bo'lib qoladi. Ularning asosiy vazifasi o'qituvchini tinglash, zarur o'rinlarda yozish, savollar bilan murojaat qilinganida javob qaytarish, kam holatlarda ruxsat etilganidagina so'zlashdan iboratdir.

An'anaviy ta'limdagi bir tomonlamalik oliy ta'lim tizimidagi faqat ma'ruza mashg'ulotlarida emas, seminar, amaliy darslarida ham ustuvorlik qiladi. Unga ko'ra, "yetkazib beruvchi" rolda endi o'qituvchi emas, balki talaba (talaba) namoyon bo'ladi. Talaba (talaba), asosan, o'zi o'zlashtirgan bilimlarni namoyish etadi, o'qituvchi esa uning fikrlarini tinglaydi, zarur o'rinlarda savollar bilan murojaat qiladi. Talaba (talaba)lar guruhi (jamoasi) bu vaziyatda butunlay sust ishtirokchi, tinglovchi bo'lib qoladi. Bir qarashda talaba (talaba) yoki o'qituvchi tomonidan uzatilayotgan axborotlarning qabul qilinishi talabalar guruhi (jamoasi) uchun bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini yaratayotgandeyek taassurot uyg'otadi. Biroq, psixologik tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha, shu tarzda qabul qilingan bilim (ma'lumot)lar juda tez unutiladi. Xususan, amerikalik psixolog olimlar R.Karnikau va F.Makelrouning o'rganishlariga ko'ra shaxsning tabiiy fiziologik-psixologik imkoniyatlari muayyan shakllarda o'zlashtirilgan bilimlarni turli darajada saqlab qolish imkonini beradi. Ya'ni shaxs: manbani o'zi o'qiganida 10%; ma'lumotni eshitganida 20%; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rganida 30%; sodir bo'lgan voqea, hodisa yoki jarayonni ko'rib, ular to'g'risidagi ma'lumotlarni eshitganida 50%; ma'lumot (axborot)larni o'zi uzatganida (so'zlaganida, bilimlarini namoyish etganida) 80%; o'zlashtirilgan bilim (ma'lumot, axborot)larni o'z faoliyatiga tatbiq etganida 90 % hajmdagi ma'lumotlarni yodda saqlash imkoniyatiga ega.

Shunga ko'ra interfaol o'qitish "ta'lim jarayonining asosiy ishtirokchilari - o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi - talaba -talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi".

Zamonaviy ta'lim, shu jumladan, uning tobora ommalashib borayotgan shakli -interfaol o'qitishda esa shaxslar o'rtasidagi suhbat (dialog) quyidagi shaxslar o'rtasida tashkil etiladi:

Interfaol ta'limdagi suhbat ishtirokchilari	O'qituvchi – talaba (o'quvchi)
	O'qituvchi – talaba (o'quvchi)lar guruhi yoki kichik guruhda ishlash
	O'qituvchi – talaba (o'quvchi)lar jamoasi (guruh, sinf jamoasida ishlash)
	O'quvchi – axborot-kommunikatsion texnologiyalar



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Interfaol ta'lim mohiyatiga ko'ra suhbatning "talaba - axborot-kommunikatsion texnologiyalar" shaklida tashkil etilishi talaba (talaba)lar tomonidan mustaqil ravishda yoki o'qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko'nikma, malakalarning o'zlashtirilishini anglatadi.

O'qitishning interfaol ta'limga asoslanishi bir qarashda nihoyatda oddiy, sodda va hatto "bolalar o'yini" kabi taassurot uyg'otadi. Biroq, bunda o'qituvchining ma'lum darajada quyidagi omillarga ega bo'lishi talab qilinadi:

Asosiy omillar	
Ish tartibi	Metodik malaka
Tayanch pedagogik-psixologik bilimlar	Tashkilotchilik qobiliyati
Didaktik vositalar (axborot, tarqatma materiallar, dars jihozlari)ga ega bo'lish	Dars jarayonida demokratik g'oyalarning ustuvor bo'lishi
Axborotlarni taqdim etishda xilma-xil metod, vositalarni samarali, o'rinli, maqsadga muvofiq va o'zaro moslikda qo'llashga erishish	

Shu bilan birga ta'limda interfaol ta'limning samaradorligi quyidagi ikkilamchi omillarga ham bog'liq:

Ikkilamchi omillar	
O'quvchi (talaba)larning darsga psixologik tayyorliklari	O'quvchi (talaba)larning o'zlashtirish darajalari
O'quvchi (talaba)larning muayyan darajada hayotiy tajribaga egaliklari	O'quvchi (talaba)larning tengdoshlari va o'qituvchilar bilan hamkorlik qilishga moyilliklari
O'quvchi (talaba)larning o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan talablarga bo'ysunish xohishiga egaliklari	O'quvchi (talaba)larning darsga nisbatan yondashishlari, burchni anglay olishlari

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqillik, o'z-o'zini nazorat, o'z-o'zini boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil hamda tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga muvaffaq bo'ladi. Eng muhimi, interfaol metodlarni qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning aniq ta'limiy maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etish, yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali xolis baholash imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Odatda, interfaol metodlarga asoslangan ta'limiy harakatiar quyidagi shakllarda tashkil etiladi: individual; juftlik; guruh; jamoa bilan ishlash.

Interfaol ta'lim jarayonida talaba (talaba)lar:

- guruh yoki jamoa bilan hamkorlikda ishlash;
- tengdoshlari orasida o'z g'oyalarni erkin bayon qilish,



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



- bilimlarini hech qanday ruhiy to'siqlarsiz namoyish etish;
- muammoni hal qilishga ijodiy yondashish;
 - guruh yoki jamoadoshlari bilan ruhiy yaqinlikka erishish;
 - o'z ichki imkoniyat va qobiliyatlarini to'liq namoyon qila olish;
 - fikrlash, fikrlarni umumlashtirish va ular orasidan eng muhimlarini saralash;
 - o'z faoliyatini nazorat qilish va mustaqil baholash;
 - o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch hosil qilish;
 - turli vaziyatlarda harakatlanish va murakkab vaziyatlardan chiqa olish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladi

Interfaol ta'lim:

- ta'lim oluvchi (talaba, talaba)larda bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi;
- ta'lim jarayonining har bir ishtirokchisini rag'batlantiradi;
- har bir talaba (talaba)ning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi;
- o'quv materialining samarali o'zlashtirilishi uchun qulay sharoit yaratadi;
- talaba (talaba)larga ko'p tomonlama ta'sir ko'rsatadi; talaba (talaba)larda o'rganilayotgan mavzular bo'yicha fikr hamda munosabatni uyg'otadi;

- talaba (talaba)larda hayotiy zarur ko'nikma, malakalarni shakllantiradi;
- talaba (talaba)larning xulq-atvorini ijobiy tomonga o'zgartirilishini ta'minlaydi

Interfaol ta'limning asosiy belgilari quyidagilardir:

Asosiy belgilar	
Ko'pfikrlilik	Suhbat (diolog)
Fikrlashga asoslangan faoliyat	G'oyalarning yaratilishi (ilgari surilishi)
Tanlash imkoniyatlarining mavjudligi	Muvaffaqiyatli vaziyatlarni hosil qilish
R y e f l y e k s i y a	

Izoh: Ryefleksiya (lotincha "reflexio" - ortga qaytish, aks etish): kishining o'z xatti-harakatlari, ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati; shaxsiy kyechinmalari, his-tuyg'ulari va o'y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash).

Interfaol ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg'ulot - ma'ruza emas, balki jamoaning umumiy ishi.
Guruhning tajribasi o'qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko'p.
2. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko'ra o'zaro teng.
4. Har bir talaba o'rganilayotgari muammo yuzasidan o'z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg'ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikir tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g'oyalar talabalarning faoliyatini boshqarmaydi, balki fikrlash uchun axborot (ma'lumot) bo'lib xizmat qiladi

Ta'limni tashkil etishga interfaol yondashuvni qaror topshirish uchun o'qituvchi (pedagog)lar bir qator shartlarga rioya eta olishlari zarur. Ular:



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Asosiy shartlar	
Ta'lim jarayoniga barcha o'quvchi (talaba)larini qamrab olish	O'quvchi (talaba)larni ruhan tayyorgarliklarini hisobga olish
O'quvchi (talaba)lar sonining ko'p bo'lishi (20-30 talaba bilan kichik guruhlarda ishlash yaxshi samara beradi)	O'quv xonalarining jihozlanishi (stullar doira, archa, "jonli liniya") kabi shakllarda joylashtirilishi
Topshiriqlarni bajarish, materiallarni taqdim etish, guruhlar ishlanmalarini muhokama etish uchun vaqtning aniq belgilanishi	O'quvchi (talaba)larni kichik guruhlarga mohirona biriktirilishi (har bir guruhda faol, nofaol o'quvchi (talaba)larning teng miqdorda bo'lishi)

Izoh: Stullar kichik va katta doira shaklida joylashtirilganda kichik doirada talabalar, katta doirada ekspert guruhi joylashadi.

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida interfaol o'qitishning quyidagi shakllarda amalga oshirilayotganligi barchaga ma'lum:

Asosiy belgilar	
Ijodiy topshiriqlarni bajarish	Kichik guruhlarda ishlash
Test o'tkazish	Qaytar aloqa
Masofaviy ta'lim	"CHigal yozish" mashqlarini tashkil etish
Muammoli vaziyatlarni hal qilish	Treninglar o'tkazish
Didaktik o'yinlar tashkil etish	Ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish
Ijtimoiy zahiralardan foydalanish (mutaxassis olimlarni taklif etish, darslarni ijtimoiy va tabiiy)	O'b'ektlar – muzeylar va Shoirlar uy-muzeylari, adiblar hiyobonlarida o'tkazish

Interfaol ta'lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. "Ta'lim jarayonida talabalar hamda o'qituvchi o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta'lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o'zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi".

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ahmadjonov T. Xorijiy tillarni o'qitishda tizimli va stilistik tahlillarni qo'llash moodle.uzspic.uz
2. Bertalanffy L. General system theory. Foundations, development, applications. N.Y., 1962.
3. Churchman C.W. The systems approach. N.Y., 1968.
4. General systems theory. N.Y. Vol. 1-30. 1956-85.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



5. Блауберг И.В., Садовский В.Н., Юдин Э.Г. Системный подход в современной науке // Проблемы методологии системных исследований. М.: Мысль, 1970.
6. Воскобойников А.Э. Системные исследования: базовые понятия, принципы и методология // «Знание. Понимание. Умение». 2013. № 6.
7. Sharq mumtoz poetikasi (tuzuvchi H.Boltaboev). – T.: O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi naShriyoti, 2008.
8. Boltaboev H. Adabiyot entsiklopediyasi. – T., 2015.
9. To'xliev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkenr: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi. 2010.
10. To'xliev B. Adabiyot. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Toskent: "O'qituvchi", 2005.